

TTPUda ayollar psixologiyasi mavzusida seminar-trening bo'lib o'tdi

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida "Hayot go'zal, chunki unda men borman!" mavzusida malakali psixologlar tomonidan kayfiyatni ko'taruvchi motivatsion trening bo'lib o'tdi. Ushbu trening TTPUning Xotin-qizlar Kengashi tomonidan tashkil etilib, unda Universitetning talaba qizlari va ayol xodimlari ishtirok etishdi.

Seminar-treningda ayollar psixologiyasi, kundalik hayotdagi turli stress holatlarni oldini olish, o'zini sevish, negativ fikrlardan ozod bo'lish, kechirimli bo'lish, ijobiy fikrlar oqimini yaratib, bugungi kun uchun minnatdorlik va shukr xissi bilan yashash kabi mavzularda mazmunli suxbat bo'lib o'tdi. Trening davomida ishtirokchilar guruxlarga bo'linib, qiziqarli so'rovnomalar, psixologik o'yinlar uyushtirildi.



